

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

№1 (Maxsus son) 2020



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O‘zbekiston falsafa jamiyati**

**Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана**

**Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan**

FALSAFA VA HAYOT XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL

2020 №1 Maxsus son

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent - 2020

21.Quvvatov Sardor Isomiddinovich TURMUSH ESTETIKASINING SHAKLLANISHIDA GO'ZALLIK KATEGORIYASINING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA.....	156
22.Муяссаров Бегали Қосимжон ўғли, Неъматов Озодбек Неъматович ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ.....	162
23.Абдумажидова Ҳамида ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИДА ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИНИНГ РОЛИ.....	169
24.Суюнов Сайфулло Ҳамраевич АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КОМИЛ ИНСОННИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	176
25.Талапов Бахриддин Алижанович ГЕНДЕР ТЕНГЛИК - ИЖТИМОЙ–ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ОМИЛИ.....	184
26.Рахмонов Абдуқаҳҳор Абдусатторович ИЛК ИСЛОМ ДАВРИДА ЗАКОТ (Ёқуб Абу Юсуфнинг “Китоб ал-Харож” асари асосида).....	190
27.Кенжаев Шавкатжон Хусанович АБАЙ ҚАРАШЛАРИДА СОҒЛОМ, БАРКАМОЛ ИНСОН МУАММОСИ.....	196
28.Ҳамдамов Ислон Акрамович ХОЖА АХРОР ВАЛИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА ФАЛСАФИЙ – ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАР.....	200
29.Султанова Гулноза Сабиловна ИЛМИЙ ТАФАККУР ТАРЗИ ФАОЛИЯТИ ТИЗИМИДА КОГНИТИВЛИК: МУАММОЛАР ВА ЁНДАШУВЛАР.....	209
30.Шодиев Рустам Тохирович ЭВОЛЮЦИЯ СУФИЗМА В УСЛОВИЯХ МАВЕРАННАХРА.....	215
31.Бозоров Мустафо Джаббарович ТАСАВВУФНИНГ ҒОЯВИЙ МАНБАЛАРИ.....	223
32.Инагамова Феруза Хуршитовна ЗЎРЛИК ИШЛАТМАСЛИК ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ КЕЛИШУВНИ ТАЪМИНЛОВЧИ МАФКУРА СИФАТИДА.....	229
33.Шадиметова Гулчеҳра Мамуровна БАЙРАМЛАРНИНГ ЭСТЕТИК МОҲИЯТИ ВА НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ.....	235
34.Умаров Мамур Боташикович ИБН СИНО НОТИҚЛИК САНЪАТИ ҲАҚИДА.....	241
35.Ҳошимова Гулсина Исмойиловна ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРМИЯСИ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ.....	247
36.Химматова Зарина Ахтамовна СЎФИ ОЛЛОҲЁР МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ ШАХС ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ.....	253

ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ PHILOSOPHY AND LIFE

Quvvatov Sardor Isomiddinovich
Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi
sardor.quvvatov@yandex.ru

TURMUSH ESTETIKASINING SHAKLLANISHIDA GO'ZALLIK KETEGORIYASINING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-SI-21>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turmush estetikasining shakllanishi estetik kategoriyalar bilan bog'liqligi borasida mulohaza yuritiladi. Xususan, go'zallik kategoriyasining falsafiy-estetik mohiyati yoritilib, uning shaxs estetik madaniyati shakllantirishdagi roli ko'rsatiladi. Turmush estetikasining shakllanish jarayonidagi go'zallik tushunchasining ba'zi konstruktiv jihatlari bayon etiladi. Shuningdek, maqolada kundalik hayotimizda turmush estetikasini shakllantirish birinchi navbatda estetikaning markaziy tushunchasi bo'lgan go'zallik kategoriyasini taqazo etishi borasida fikr yuritiladi. Go'zallikni yaratish hamda voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish inson va jamiyat ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Muallif go'zallik barkamol inson shaxsini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida inson estetik didini shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega ekanligiga ham alohida urg'u beradi. Turmushdagi nafosat estetik tarbiya bilan uyg'un tarzda, birgalikda olib borilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: estetika, turmush estetikasi, falsafa, kategoriya, estetik madaniyat, go'zallik, jamiyat, san'at, ma'naviyat, axloq, madaniyat.

Кувватов Сардор Исомиддинович
Самаркандский государственный университет, преподаватель
sardor.quvvatov@yandex

О РОЛИ КАТЕГОРИИ ПРЕКРАСНОГО В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИКИ ЖИЗНИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о том, как формирование эстетики жизни связано с эстетическими категориями. В частности, освещается философско-эстетическая сущность категории прекрасного, указывается ее роль в формировании эстетической культуры личности. Описаны некоторые конструктивные аспекты понятия прекрасного в процессе формирования бытовой эстетики. В статье автор анализирует категории прекрасного как основное средство эстетического воспитания повседневной жизни и также ее роль в формировании эстетической культуры. Создание красоты, ее восприятие имеет огромное значение в реальной жизни, имеет огромное значение в духовной жизни человека и общества. Автор анализирует категории прекрасного как основное средство в процессе воспитании совершенного человека. Утверждается тот факт, что взаимодействие эстетика жизни и эстетическое воспитание способствуют гармоничную связь в жизни человека.

Ключевые слова: эстетика, эстетика жизни, философия, категория, эстетическая культура, прекрасное, общество, искусство, духовность, этика, культура.

Kuvvatov Sardor Isomiddinovich,
Samarkand State University, the teacher,
sardor.kuvvatov@yandex

ON THE ROLE OF THE CATEGORY OF BEAUTY IN THE FORMATION OF THE AESTHETICS OF LIFE

ANNOTATION

This article discusses how the formation of the aesthetics of life is related to aesthetic categories. In particular, the philosophical and aesthetic essence of the category of beauty is highlighted, and its role in the formation of the aesthetic culture of the individual is shown. Some constructive aspects of the concept of beauty in the process of formation of the aesthetics of life are described. In clause the author analyzes categories perfect as the basic means of aesthetic education of daily life and also its role in formation of aesthetic culture. Creation of beauty, its perception has huge meaning in real life, has huge meaning in spiritual life of the man and society. The author analyzes categories perfect as the basic means in process education of the perfect man. That fact affirms, that interaction an aesthetics of life and aesthetic education promote harmonious connection in life of the man.

Key words: aesthetics, aesthetics of life, philosophy, category, aesthetic culture, beauty, society, art, spirituality, morality, culture.

Falsafa fanlari tarmoqlaridan biri estetika insoniyatning go'zallikka, nafosatga va san'atga bo'lgan munosabatini o'rganish bilan bir qatorda kishilarning turmush tarzi, etnik marosim va bayramlari, oiladagi odob, xulq – nafis his tuyg'ularni shakllantirish, turmush go'zalligi kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi. Aniqroq aytganda, estetikaning bunday tarmog'i turmush estetikasidir. Ayniqsa, hozirgi globallashgan, g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar avj olayotgan, ma'naviy hayotda ko'zga tashlanib qolayotgan ba'zi "kemtik"lar, yoshlar tarbiyasiga G'arb turmush tarzi, madaniyatining salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, mahalla va oilalarda, kishilar ongida estetik madaniyat, estetik tarbiyaning kishilar ongiga kirib borishi qiyin kechayotgan bir davrda turmush estetikasining shakllanishiga ehtiyoj seziladi.

Falsafa qomusiy lug'atida turmush tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Turmush – kishilarning moddiy, oziq-ovqat, kiyim kechak, uy-joy, sog'liqni saqlashga bo'lgan, shuningdek, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat ijtimoiy hayotning noishlab chiqarish sohasi" [3, B.110]. Turmush keng ma'moda tinchlik, kundalik hayot tarzini anglatib, ijtimoiy hayotning barcha sohaları mehnat, ijtimoiy faoliyat, kishilar kayfiyati va yurish turushiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, turmushning shakllari farqlanadi: ijtimoiy, shahar, qishloq, oilaviy, yakka va boshq. Demak, insonning kundalik hayot kechirishi, boshqalarga bo'lgan munosabati va hatti-harakatlaridagi ko'pgina jihatlari turmush tushunchasida umumlashadi. Shuningdek, "turmush" so'zi insonning ijtimoiy-foydali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kundalik hayot sferasini, kishining ijtimoiy hayotga – munosabatga kirishish ma'nolarini ham anglatadi. Turmush – bu ijtimoiy hayotning moddiy sharoiti, muhiti, uning moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi inson hayotining asosiy qismi hamdir. Turmushda insonning mohiyati uning faol harakatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, ovqat tayyorlaydi, o'z sog'ligi va yaqinlari sog'ligi to'g'risida, bolalarini tarbiyalash, ta'lim olishi haqida qayg'urish bilan bir qatorda ularga o'zining va ajdodlarining moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, shuningdek boy hayot tajribasini yetkazib berib, yuksak ma'naviyat, ezgulik, halollik, to'g'riso'zlik, madaniyatlilik kabi hayotiy aqidalarni o'zlashtiradi. Qarindoshlari, yaqinlari, o'rtoqlari, do'stlari bilan muomala qiladi; tabiatni kuzatadi va uning tuhfaralaridan bahra olib, ko'nglini ochadi; hayoti uchun turli-xil kerakli narsalarni tayyorlaydi va ishlatadi, yaqin odamlari bilan hayotining barcha xursandchilik va g'am-g'ussalarini bo'lishadi va hokazo.

Kishilarning hayot faoliyati turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bunga moddiy va ma'naviy qadryatlarni yaratish, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish, oila-turmushdagi faoliyat, o'qish, ishlash, umumiy etiketni, ko'ngildagidek hordiq chiqarishni yo'lga qo'yish borasidagi faoliyat kiradi. Kishiga bu faoliyat davomida faqatgina ratsional tafakkur emas, balki hissiy-emotsional tuyg'ular ham kerakligini ta'kidlash joiz. Turmush insondan doimo hissiy, aqliy va irodaviy kuch, qobiliyat va imkoniyatni talab etadi. Inson yashar ekan, ko'pincha turmush qiyinchiliklariga duch kelib, unga matonat bilan bardosh beradi, kezi kelganda uni bartaraf etish bilan bir qatorda kerakli bo'lgan yashash shart-sharoitlarni yaratadi va unga mos ravishda xarakter, ishtiyoq va uslubni shakllantiradi. Insonlarning turli xil xarakteri, temperamenti, ishtiyoqi, ta'bi, intilishi va istaklari uning turmushni boyitib boradi. Turmushda – xonadonda narsalar, asboB.anjomlar, kerakli jihozlar doimo bir xil tartibda joylashtirilmaydi, ularning bajaradigan vazifasiga qarab, uy egasining didiga va rangiga qarab joylashtiriladi. Albatta, insonlarning xarakteri, temperamenti turli xil bo'lishi mumkin. Lekin uning mazkur jarayonda ishtirok etgan did-farosati estetik did va madaniyatning qay darajada ekanligini ifodalab beradi. Demak, insonning hayotida, turmush tarzida nafosat – estetik madaniyat, estetik his-tuyg'u, estetik faoliyat, estetik did o'ziga xos o'rin egallaydi.

Xo'sh, turmush estetikasi nima? Turmush estetikasi deganda biz insonning voqelikka keng qamrovli estetik munosabatini tushunamiz. U hozirgi paytda kiyinishdan tortib xulqiy go'zallikkacha, oilaviy an'analardan tortib, oilaviy makongacha bo'lgan "estetik doirani" o'z ichiga oladi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi[1, B.240].

Insonning xulqiy go'zallik qonun-qoidalariga amal qilib yashashi uning ma'naviy borlig'i tendensiyalarining muhim shartidir. Uning xulqiy go'zalligi mahallada, oilada, jamoat joylarida o'zini umumodob me'yorlarida tutishida, o'zgalar bilan muloqotga kirishganda, shuningdek kasbiy munosabatlarda muomala odobi va etiket jihatdan yondoshuvda, o'zaro suhbatlarda ham xushmuomalalik bilan so'zlashishida namoyon bo'ladi. Uning o'ziga xos sharti sifatida, go'zallikning axloqiylikda, aksincha, axloqiylikning go'zallikda namoyon bo'lishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu garmonik holatdir.

Taniqli estetik olim M.Olloyorovning fikricha, go'zallik – bu markaziy mezoniy tushuncha (kategoriya) bo'lib, unda borliqdagi narsa hodisalarning shakl va mazmun uyg'unligi, mukammalligi va insonning ularga bo'lgan ma'naviy-ruhiy lazzatlanishi bilan shartlangan munosabati ifodalanadi[4, B.37-38]. Ob'ektning xususiyati, jihatlari kishi tomonidan estetik sub'ekt sifatida qayd etilgan birliklar o'lchovida idrok etilgan paytda unda ma'naviy lazzatlanish his-tuyg'ularini (ruhiy g'izolanish-poklanish, zavqlanish, shodlik) uyg'otadi. Go'zallikning mohiyati borliqning barcha sohalarida (tabiat, jamiyat, inson, san'at) turli shakl, xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu mulohazalar chorhasida E.Umarov ham go'zallik tushunchasiga estetikaning barcha muammolarining bog'liqligini tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, "Go'zallik – estetikaning asosiy tushunchasi. Go'zallik nafosat olamining mag'zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shu bois estetikani go'zallik haqidagi fan, go'zallik falsafasi deb ham ataydilar. Go'zallik – bu asosiy estetik qadriyat bo'lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik subyektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy qismlariga ham taalluqlidir. Estetik his-tuyg'u, eng avvalo go'zallikni his etish jarayonini anglatadi. Estetik orzu esa go'zallikni inson xohlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. Estetik did bo'lsa ko'p jihatdan shaxs va jamiyat nimani go'zallik sifatida, nimani xunuklik sifatida idrok etishida namoyon bo'ladi. Va nihoyat, estetik qarashlar go'zallikning tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarni anglatadi"[6, B.110].

Odatda go'zallik xushnudlik kayfiyatlarini hosil qiladigan narsa-hodisalar majmui, zavq bag'ishlovchi hodisa sifatida tushuniladi. Bu go'zallikka nisbatan sodda, jo'n va yuzaki tushunishdir. Aslida go'zallik shunday xususiyatga egaki, u yoqimlilik tuyg'usiga bog'liq holda, odamlarning birlashuviga, ularda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga hamda ma'naviy jarayonlarning barqarorlashuviga olib keladi. O.G'aybullaevning fikricha, go'zallik – bu tabiat va jamiyatdagi estetik ong va faoliyat asosida vujudga keladigan sub'ektning voqelikni idrok etish qobiliyatidir[5, B.57].

Inson ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqea-hodisalarni go'zal jihatlarini mehr-muhabbat, zavq-shavq, erkinlik tuyg'ulari bilan his etadi. Inson olamda yuz berayotgan jarayonlarni o'zining his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali bilib olishga intiladi. Ana shu intilishlarda kishining avvalo, go'zallikni his etishga bo'lgan qiziqishlari sodir bo'lib, nima go'zalu, nima xunukligini bilish jarayoni voqelikni idrok etishda yuz beradi.

Go'zallik uyg'unlik, maqsadga muvofiqlik, mutanosiblik, me'yor, tartiblilik, hamoxanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, tenglik kabi tushuncha-unsurlarning mavjudligini talab etadi. Bu tushunchalar narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, chiroyli ko'rinishini ta'minlaydi. Masalan har bir fasl o'ziga xos go'zallikni namoyon etadi. Biroq, faslning xususiyatlari uning go'zalligidagi unsurlar bilan mos, mutanosib va hamoxang bo'lmog'ini talab etadi (daraxtlarning uyg'onishi va zaminning ko'klamga bezanishi - bahoriy go'zallikni, qahraton sovuq va borliqni oppoq qorga burkanishi - qishning chiroyini belgilaydi va h.k.). Bu unsurlar go'zallikdagi tug'yoniqlik, maftunkorlik, foydalilik, mo'jizaviylik kabi sifatlarni takomillashtiradi. Bu sifatlarni qulaylik, manfaatdorlik, zavqlanish, lazzatlanish singari go'zallikning xususiyatlarini belgilaydi.

Go'zallik tushunchasi estetikaning boshqa kategoriyalari bilan dialektik bog'liqda bo'lib, mezon, me'yor buzilish oqibatida teskari tushuncha ahamiyat kasb etadi. Go'zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo'lib, ularni idrok etish hayrat va quvonch bag'ishlaydi, shaxsning uyg'un hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy xislat-fazilatlar tarkib topishga ko'maklashadi.

Inson ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan birgalikda, u hamisha tabiat bilan aloqadorlikda shakllanadi. Inson voqelikda yashar ekan, doimo faollikda: tabiatni, atrof-muhitni o'rganadi, bilishga harakat qiladi, o'zlashtiradi, moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratadi. Mazkur jarayonda uning madaniyati ham shakllanib borib, u ikki substansional jabhada namoyon bo'ladi: ichki va tashqi madaniyat. Ichki madaniyat - insoniyat ma'naviy boyligi, ratsional, hamda axloqiy rivojlanganlik darajasi, hissiyoti, dunyoqarashi, vijdon, imon, diyonat, ezgulik, hamdardligi va insonparvarligidir.

Insonning tashqi madaniyati uning axloq-odob qoidalari, yurish-turish, hatti-harakat, muomala, etiket normalariga rioya qilishida, shu bilan birga so'zlashishida, kiyinishida aks etadi. Arastu go'zallikni, garmoniyani shakl va mazmun birligida, deb e'tirof etganidek, insonlarning ham ichki va tashqi madaniyati uzviy bog'liq holda rivojlanishi kerak. Shundagina shaxs barqarorligi, insoniy munosabatlardagi go'zallik, yigit-qizlar munosabati, turmushdagi munosabatlar, do'stlik va o'rtoqlik munosabatlari odoblilik doirasida, axloqiy go'zallik tamoyillari asosida shakllanib boradi. Kishilarning turmush tarzida samimiylik, halollik, do'stlik, muhabbat umumiy manfaat sifatida axloqiy-estetik ehtiyojga aylanib borishi, shaxs axloqiy-estetik faoliyatini yuzaga keltiradi. Odob tuyg'usi rivojlangan insonlar go'zal xatti-harakatlar sohibiga aylanadilar[2, B.166]. Ya'ni bunday kishi, faqatgina yuksak o'dob axloqiy sifatlarga ega bo'libgina qolmasdan, balki turmush go'zalligiga alohida e'ibor qaratishi bilan ajralib turadi. Insonning tashqi qiyofasi uning umumiy madaniyati va saviyasidan dalolat beradi. Chunonchi, qanday holatlarda qay tariqa kiyinish, kimga qanday muomalada bo'lish, uy jihozlarni joylashtirish, san'atga bo'lgan munosabat, mehmon kutish, farzand tarbiyasi va h.z. Bular qatoriga ayniqsa, turmush estetikasining ajralmas qismi bo'lgan texnika estetikasi va dizayn muammolarining go'zallik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligini e'tirof etish joiz. Misol uchun, dizayner buyumga o'ziga xos nafosat va uyg'unlikni singdirib, unda insoniy qadriyatlarni shakllantiradi. Buyumlar olamini va turmush estetikasini go'zallashtirish orqali insonda jamiyatga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go'zallik olamiga mutlaqo begona bo'lgan hodisa sifatida idrok etishgan bo'lsa, keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o'zining avvalgi dag'al, qo'pol, noqulay ko'rinishini yo'qotdi. Endilikda texnika o'zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan insonga yaqinlasha boshladi. Xolbuki, dizayn go'zallik kategoriyasi bilan uyg'un holdagina rivojlanadi. Buyumni badiiy loyihalashtirish jarayonida uning shakli bilan mazmuni hamohang, bir-biriga mos bo'lishi lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim. Xulosa shuki, dizayndagi haqiqiy go'zallik shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishida namoyon bo'ladi.

Kishilar ijtimoiy borliq, hodisalar, voqeliklar bag'rida dunyoga kelib ulg'ayar ekan, ijodiyot va ijtimoiy hayot tomonidan in'om etgan ajoyib, hayratomuz nafosat, go'zalliklarning shohidi,

guvohi bo'ladilar, shuningdek, ulardan zavqlanib, bahramand bo'lib, bahri-dili ochilib hayot kechiradilar. Shunday ijtimoiy hayot go'zalliklardan yoshlar bahra olgandan keyin uning ko'tarinkilik kayfiyati, badiiy ruhiyati vujudga kelib tafakkurida o'z aksini topadi.

Go'zallikka intilish, undan zavq-shavq tuyish, bahra olish, o'zining mazkur sohadagi yaratuvchilik imkoniyatlarni amalga oshirish ehtiyoji insonda hech qachon tugamaydi, ma'lum bir chegarada to'xtab qolmaydi. U ushbu ehtiyojini turli usullarda qondiradi. Masalan, xalq og'zaki ijodi va amaliy bezak san'ati, adabiyot va san'atning barcha turlari, janrlari uni qondirishga qaratilgan insonning maxsus ijodiy faoliyati sanaladi. Ya'ni, inson o'zi uchun, farzandlari uchun kitoblar, rasmlar, devorlarga ilinadigan, yoki tokchalarga qo'yiladigan estetik qiymatga ega bo'lgan jihozlarni xarid qilish bilan birgalikda, xonalarni yuksak estetik did bilan bezashga harakat qiladilar. Dam olish kunlari oilaviy bo'lib, kinoga, teatrga yoki konsertlarga boradilar. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, san'at va badiiy adabiyot asarlarini estetik o'zlashtirish insonning ma'naviy-ruhiy yuksalishiga, tuyg'ulari, dunyoqarashi teranlashishiga, noziklashishiga, ezgulik va go'zallik bilan yo'g'rilishiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Natijada odamlar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi, mehr-oqibat kuchayadi. Oddiygina turmushdan, hayotdan nafasat, go'zallik axtara boshlaydi. Ular o'z hayotini, faoliyatini, muhitini "go'zallik me'yorlari bo'yicha qayta yarata boshlaydi", yuksak estetik ideallarni orzu qiladi.

Mulohazamiz xotimasi sifatida shuni aytish mumkinki, kundalik hayotimizda turmush estetikasini shakllantirish estetikaning markaziy tushunchasi bo'lgan go'zallik, uning yuksak estetik qadryatlarning yaratilishiga olib keladigan determinizmiga bog'liq holda amalga oshadi. Go'zallikni yaratish hamda voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish inson va jamiyat ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Go'zallik barkamol inson shaxsini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida inson estetik didini shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. Turmushdagi nafasat uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi estetik tarbiya bilan uyg'un tarzda, birgalikda olib borilishi lozim. Shundagina turmush madaniyatining yanada yuqori bosqichlarda rivojlanishini ko'rishimiz lozim. Bu jarayonda turmushda o'ziga xos an'analarning davomiyligi, shuningdek ota-onalarning farzandlariga namuna bo'lishi va ularga estetik sharoit yaratib berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Go'zallik insonni har tomonlama rivojlanishiga ko'mak berishi barobarida boshqa estetik omillarning jamiyat hayotida yanada faollashuviga sharoit yaratib beradi.

Иқтибослар /Сноски/ References

1. Abdulla Sher. Estetika. Darslik, T.: "O'zbekiston", 2014, 240-b.(Abdulla Sher.Aesthetics. Coursebook, T.: "Uzbekistan", 2014, page 240.)
2. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxoyev, Estetika asoslari, T.: 2007y, 166-b (E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxujayeva, Principals of Aesthetics, T.: 2007y, page 166)
3. Falsafa qomusiy lug'at. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004, 404-b (Philosophy encyclopedic dictionary. T.: "Sharq" joint-stock publishing House company, chief editorship, 2004, page 404)
4. Оллоёров М. Эстетиканинг асосий категориялари. Услубий қўлланма. Самарқанд. СамДУ нашри. 2011, 37-38 бет.(Allayorov M. Principal categories of Aesthetics . Methodical book. Samarkand. Publication of Samarkand State University. 2011, pages 37-38.)
5. О.Ғайбуллаев. Эстетика. АЛ ваКХК учун услубий қўлланма. Самарқанд. СамДУ нашри. 2004, 57-бет (O.G'aybullayev. Aesthetics. Methodical book for academic lyceums and vocational colleges. Samarkand. Publication of Samarkand State University. 2004, page 57)
6. Umarov E. Estetika(Nafosatshunoslik). – T.: "O'zbekiston", 1995, 110-b (Umarov E. Aesthetics(Elegance).-T.: "Uzbekistan" 1995, page 110)
7. A.Makhmudova Guarantee of legal basic of supporting human rights in new level of Uzbekistan's development . International Journal of Advanced Science and Technology Vol.29 .No.5, (2020), pp.1761-1770
8. Шермухамедова Н.А. Фалсафа – ўқув услубий мажмуа. –Т.: Ношир, 2012. -1207 бет. (Shermuxamedova N.A. Philosophy. Educational-methodical complex. –Т.: Noshir, 2012. -1207 p.)

- 9.Бучило Н. Ф., Чумаков А. Н. Философия: учеб. пособие. –М.: ПЕР СЭ. -447 Б. (Buchilo N.F., Chumakov A.N. Philosophy: Textbook. allowance. –М.: PER SE. -447 p).
- 10.Философия. Учебное пособие. Издание второе, исправленное и дополненное. Под ред. проф. В. В. Трушкова . — М.: Былина, 2004. -213 Б. (Philosophy. Tutorial. Second edition, revised and supplemented. Ed. prof. V.V. Trushkova. - М.: Bylina, 2004. -213 p).
- 11.Радугин А. А. Философия: Курс лекций: Учебное пособие для студентов вузов. — 2-е изд., перераб. и доп. —М.: Центр, 2001. -269 Б.(Radugin A. A. Philosophy: Course of lectures: A manual for university students. - 2nd ed., Revised. and add. —М.: Center, 2001. -269 p).
- 12.Brandt M. J., Crawford J.T. Worldview conflict and prejudice. Advances in Experimental Social Psychology, 2020. p. 1-99.